

# DISTANCE EDUCATION IN UZBEKISTAN

Muhamarram Shavkatqizi Quranboyeva

Teacher of Chirchik State Pedagogical University

E-mail: quranboyevamuxarram@gmail.com

**Abstract:**

The article is about reforms in the distance education system in the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** distance education, pedagogy, education, educational technologies, effective education.

## O'ZBEKİSTONDA MASOFAVİY TA'LIM

Quranboyeva Muxarram Shavkat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchi

**Annotatsiya:**

Maqola O'zbekiston Respublikasida masofaviy ta'lif tizimida olib borilayotgan islohotlar to'g'risida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** masofaviy ta'lif, pedagogika, tarbiya, ta'lif texnologiyalari, ta'lif samaradorligi.

Mamlakatimiz ta'lif tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotgan bugungi kunda, turli ta'lif shakllari qatori ayniqsa, masofadan o'qitish keng qo'llanilayotganligi ham quvonchli hol.

Ko'pchilik internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, axborot qidirish, elektron pochtadan foydalanish yoki gap sotish uchun foydalanishi hech birimizga sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Bunga misol qilib: masofadan o'qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar va boshqa sohalarni aytishimiz mumkin. Quyida biz ushbu texnologiyalarning qisqacha, lekin asosiy bo'lgan tavsiflarini keltiramiz. Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va o'zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarda o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqeа hodisalar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz kuchli yangilik oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni har joyda, uyda, ishxona va hattoki ta'tilda ham ta'qib etadi. Inson axborot ta'siridan holi normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rghanish axborotlarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi.[3]

Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Vaholanki, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida masofadan o'qitish uslubi shakllari qo'llanilmoqda. Masofaviy ta'lim uslubi bu sirtqi o'qishning yangi shakli va mustaqil o'qishdir. Bu insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Masofadan turib yoki odatdagidek sinfxonalarida ta'lim olish - bu ko'plab abituriyentlarni qiyayotgan savol. Ko'pincha o'quvchilar masofaviy ta'lim olishni tanlashdan qo'rqlik, chunki ular ushbu ta'lim usulining ijobiy va salbiy tomonlariga aniqlik kiritmaydilar. Agar siz shu tartibda bilim olishni xohlasangiz, masofaviy bilim olishning afzallikkari va kamchiliklarini tushunib olishingiz lozim.

Masofaviy ta'lim olishning afzallikkari va kamchiliklar:

1. O'qish bilan bir qatorda ish bilan ham shug'ullanish mumkin. Aslida masofaviy o'qishni tanlagan abiturentlarning asosiy qismi bu o'z ishidan voz kechishni istamaydigan, ammo bilim olishni xohlaydiganlardir. Onlayn ta'limda dam olish kunlarida, ishdan qaytganda hatto yarim kechada o'qish mumkin;
2. Mablag' tejaladi. Har qanday dastur uchun masofaviy ta'lim darajasi o'quv markazlaridagi oddiy to'lovdan ko'ra ancha arzonroq bo'lishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan maqbul variantlarni qidirayotgan o'quvchilar uchun onlayn ta'lim eng to'g'ri yo'l;
3. Vaqt tejaladi. O'quv markazlariga borish va qaytish vaqtida transport kutish uchun ketadigan vaqt tejalishi mumkin. Onlayn ta'limda istagan hududda ma'lumot olish mumkin;
4. Agar talaba o'zini intiluvchan hisoblasa, masofaviy ta'limning eng katta foydasi shundaki, ayrim darslar guruh bo'lib o'tiladi. Guruhda ba'zi o'quvchilar tezroq, ayrimlari esa sekin tushunadilar. Bu jihatdan masofaviy ta'lim olish usuli samaraliroq;

Kamchiliklar: Chalg'ish ehtimoli yuqori. Yuzma-yuz muloqot qilish uchun o'qituvchilar va kutilayotgan topshiriqlar haqida doimiy ravishda eslatuvchi kursdoshlar yo'q. Agar talaba masofaviy o'qitish kursini muvaffaqiyatli yakunlamoqchi bo'lsa, o'zini g'ayratli va diqqatli qilishi kerak;

Tarmoqdan ayrilish. Onlayn bilim olishning eng katta dushmani bu internet provayderlarining sekin ishlashi yoki aloqa uzilib qolishi. Bu vaziyatda talabaning ta'lim olishga bo'lgan intilishi so'nishi yoki asabiylashishiga olib keladi.[2]

Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'lim turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi. Moslashuvchanlik – Ta'lim oluvchiga o`ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta'lim olish imkoniyati mavjudligi. Modullilik – Bir biriga bog`liq bo`Imagan mustaqil o'quv kurslari to`plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o'quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi. Parallelilik – O`quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi. Keng qamrovlik – Ko`p sonli o'quvchilarining bir vaqtning o`zida katta o'quv zahiralariga murojaat qila olishi. Iqtisodiy tejamkorlik – O`quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o'quv materiallaridan samarali foydalanish, o'quv materiallarini bir joyga yig`ish, ularni tartiblangan ko`rinishga keltirish va bu ma'lumotlarga ko`p sonli murojaatni tashkil qilib bera olish mutaxassislarni tayyorlash uchun ketadigan xarajatlarni kamaytiradi. Ijtimoiy teng huquqlilik – Ta'lim oluvchining yashash joyi, sog`lig`i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli ta'lim olish imkoniyati. Internatsionallilik – Ta'lim sohasida

erishilgan jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati. O`qituvchining yangi roli – Masofaviy o`qitish o`qituvchining o`qitish jarayonidagi rolini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Sifat – Masofaviy o`qitish usuli ta`lim berish sifati bo`yicha kunduzgi ta`lim turidan qolishmaydi. Balki, mahalliy va chet elliq dars beruvchi kadrlarni jalb qilib, eng yaxshi o`quv-metodik darsliklar va nazorat qiluvchi testlardan foydalangan holda o`quv jarayonini tashkil etish sifatini oshirishi mumkin. Yuqoridagilarni hisobga olinganda masofaviy ta`lim kompleksi ancha qulayliklarga ega ekan. [1]

Masofaviy ta`lim jarayonining ishtirokchilar — ta`lim tashkilotining masofaviy ta`lim shakliga qabul qilingan talabalar, professor-o`qituvchilar hamda masofaviy ta`limning tashkiliy-texnik va metodik ta`minotini amalga oshirishga mas`ul shaxslar hisoblanadi.

## REFERENCES

1. Suyunov, B. T. (2023). Shaxsga yo‘naltirilgan ta`lim – inson farovonligining omili sifatida. Inson farovonligini o‘rganishda fanlararo yondashuv, 1(1), 20-23.
2. Kushakova, M. N. (2023). New priorities for the development of the digital economy in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 402, p. 08039). EDP Sciences.
3. Туйчиев, Л. Н., Худайкулова, Г. К., Джураева, Н., & Эралиев, У. Э. (2023). A study of the factors affecting the effectiveness of COVID-19 rehabilitation.
4. Gorin, A. (2023). MÜNZFUNDE AUS DER FESTUNG UZUNDARA. Von Alexander dem Grossen bis zum Reich der Kuschan, 1(2), 319-325.
5. Kasimova, D. K. (2017). Problems of Students’ Social Adaptation on the Basis of Values Assimilation. Eastern European Scientific Journal, (4).
6. Yunusalievna, E. M., & Maxmudovna, K. M. (2023). Theoretical Foundations of Using the Possibilities of Mobile Learning in the Educational Process. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 3443-3453.
7. Eshnazarova, M. (2019). Some requirements and principles of mobile learning. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(2), 266-270.
8. Eshnazarova, M., & Nurmatov, B. (2019). The current state and content of the course Metods of calculations. International Journal of Research Culture Sociyeti, 3(3), 79-83.
9. Эшназарова, М. Ю., & Настинов, С. Т. Ў. (2020). Мобил таълим ва мобил платформалардан фойдаланишнинг назарий асолари. Academic research in educational sciences, (4), 513-518.
10. Eshnazarova, M. Y. (2019). Mobility as a principle of modernization of higher pedagogical education. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(12), 327-332.
11. Sidikovich, K. S. (2023). Integrative-Pedagogical Features of The Development of A Sense of Patriotism in Future Educators. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 1(2), 259-264.
12. Murotjon ogli, X. O. (2023). SIFATLI TALIM TIZIMINI BARPO ETISHDA CHET EL TAJRIBASI (FINLANDIYA, SINGAPUR MISOLIDA). O’ZBEKISTONDA

- 
- FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(21), 162-164.
13. Murotjon, X. O. (2023). Measures to be Implemented to Preserve and Protect Architectural Monuments in the City of Bukhara. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(8), 402-406.
  14. Abdiyeva, G. B., & Qarshiboyyeva, X. K. (2022). Dars jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ixtirochilikka oid kompetensiyalarini shakllantirish. Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture, 2(1), 91-94.
  15. Karimovna, K. K. (2023). Taking the Education System to a New Level with the TALIS International Assessment Program and Action Strategy. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(4), 245-249.
  16. Karshiboyeva, K. (2023). Use Of Integrated Educational Technologies In Higher Education. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 1(3), 254-261.
  17. qizi Quranboyeva, M. S. (2023). Matematika ta'limida fanlararo aloqadorlikdan foydalanib o 'qitishni tashkil etish. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 25-28.
  18. Quranboyeva, M. S. (2022). O'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish. TDPU Ilmiy axborotlari, 1(1), 332-336.
  19. Kuranboyeva, M. (2022). Maktab algebra kursida o 'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish. Science and Innovation, 1(B6), 177-179.
  20. Quranboyeva, M. S. (2021). Matematika fanlarini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. O'qituvchi, 1(1), 90-92.